| Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati .....                                                         | 655 |
| Erkinova Maftuna Zafarovna                                                                                                                         |     |
| Влияние дивидендной политики, СПО и капитализации на волатильность акций АО «УЗРТСБ»: Эконометрический и поведенческий анализ.....                 | 662 |
| Пулатов Улугбек Халипович                                                                                                                          |     |
| Hududiy jihatdan ziyorat turizmi rivojlanishining holati: Qashqadaryo viloyati misolida.....                                                       | 671 |
| Uzaqov Norboy, Uzaqov Jamshid Norboyevich                                                                                                          |     |
| Integration of digital twin and BIM technologies in construction enterprises in Uzbekistan: prospects and challenges .....                         | 676 |
| Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna                                                                                                                   |     |
| Yashil bank xizmatlari – tijorat banklari moliyaviy mahsulotlar misolida .....                                                                     | 682 |
| Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi                                                                                                                |     |
| Tijorat banklari faktoring xizmatlari orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish .....                                 | 688 |
| Jalilov Azizbek Baxodir o'g'li                                                                                                                     |     |
| Oliy ta'limda xizmat sifatini baholash va marketing integratsiyasi orqali rivojlantirish strategiyalari .....                                      | 694 |
| Maxmudov Faxriddin Umarovich                                                                                                                       |     |



|                                                                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Qurilgan mevalarni xalqaro bozorda targ'ib qilish bo'yicha kontent-marketing strategiyasidan foydalanish yo'llari .....                           | 699 |
| Yunusov Baxodir Marisovich                                                                                                                        |     |
| Онлайн трансграничные переводы и их влияние на валютное таргетирование со стороны центрального банка Республики Узбекистан.....                   | 704 |
| Садыков Азиз Миршарапович                                                                                                                         |     |
| Aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati .....                                                                                    | 709 |
| Azimova Xurshida                                                                                                                                  |     |
| Analysis of factors affecting the economic integration of the countries of Uzbekistan and Afghanistan.....                                        | 715 |
| Toran Tajuddin                                                                                                                                    |     |
| Aniq fanlarni o'qitishda metakognitiv yondashuvlar .....                                                                                          | 719 |
| Farmonov Dilshod Po'latovich, Nigmatov Izzat Shovkat o'g'li                                                                                       |     |
| Yevropa hamjamiyatining "Yashil" ziyorat loyihasi va uni ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati.....                                      | 727 |
| O'rinova Durdona Botir qizi                                                                                                                       |     |
| CEQ (Commitment to Equity) baholash metodologiyasi asosida fiskal taqsimot tahlilining nazariy asoslari.....                                      | 734 |
| Zokirjonov Muhammadsodiq Ravshanbek o'g'li                                                                                                        |     |
| Xalqaro xususiy huquq tamoyillarini belgilash masalalari.....                                                                                     | 741 |
| Vaxabov Azizbek Abdurashidovich                                                                                                                   |     |
| Moliyaviy mustaqil oliy ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyalarini takomillashtirish .....                                                 | 747 |
| Alimardonov Asrorjon Alimardonovich                                                                                                               |     |
| Инновационные подходы к организации туристических услуг как методом противостояния кризису.....                                                   | 754 |
| Халлакова Барнохон Баходиржонова                                                                                                                  |     |
| Islom moliyasi institutlarining ijtimoiy moliyaviy barqarorlikka ta'siri.....                                                                     | 760 |
| Amonova Nafisa Baxtiyorovna                                                                                                                       |     |
| Oliy ta'lim muassasalari investitsion jozibadorligini boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....                                               | 764 |
| Otaxanov Rasulbek Marks o'g'li                                                                                                                    |     |
| Инновации в сфере оценки недвижимости .....                                                                                                       | 768 |
| Мансурова Сайёра Бахтиёр кизи                                                                                                                     |     |
| Qashqadaryo viloyatida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tahlili.....                                                          | 777 |
| Bo'riyev Sardor Norovich                                                                                                                          |     |
| O'zbekistonda soliq auditi tekshiruvini takomillashtirish.....                                                                                    | 783 |
| Yusupov Mansur Rasulovich                                                                                                                         |     |
| Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini va soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish islohotlari.....                 | 788 |
| Normurzayev Umid Xolmurzayevich                                                                                                                   |     |
| Barriers to women's career advancement .....                                                                                                      | 794 |
| Sharifova Mokhinabonu                                                                                                                             |     |
| Mehnat unumdorligini oshirishda resurs tejamkor va lean-digital yo'nalishlarning istiqbollari.....                                                | 798 |
| Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li                                                                                                           |     |
| Toshkent shahrida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni sotsiologik tadqiqotlar asosida baholash..... | 803 |
| Tolipov Alisher Qo'chqarovich                                                                                                                     |     |



UDK: 330.32.338.49

# TOSHKENT SHAHRIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN INFRATUZILMAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR ASOSIDA BAHOLASH

**Tolipov Alisher Qo‘chqarovich**Toshkent arxitektura va qurilish universiteti  
mustaqil tadqiqotchisiE-mail: [alisher.talipov@inbox.ru](mailto:alisher.talipov@inbox.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Toshkent shahrida kichik biznes subyekt larini davlat tomonidan infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlashni sotsiologik anketa tadqiqotlari asosida baholash natijalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, infratuzilma, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, institutsional qo‘llab-quvvatlash.

**Abstract:** This article presents the results of the assessment of sociological questionnaire research on state infrastructure support for small businesses in the city of Tashkent.

**Key words:** small business, private entrepreneurship, infrastructure, government support, institution support.

**Аннотация:** В данной статье приведены результаты оценки социологических анкетных исследований по государственной инфраструктур ной поддержке субъектов малого бизнеса в городе Ташкенте.

**Ключевые слова:** малый бизнес, частное предпринимательство, инфраструктура, государственная поддержка, институциональная поддержка.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va keskin raqobatchilik sharoitda kichik biznes subyektlari o‘rtasida raqobatlashuv darajasi tabiati va chegaralari o‘zgarib, kooperatsiya aloqalarining turli shakllari rivojlanmoqda. Kichik biznes jahonda mavjud korxonalarning 90 foizini, bandlikning 60-70 foizini va dunyo YaIMning 50 foizini, XXRda YaIMning 60–70, AQShda va Finlyandiyada 60, Italiyada 70 foizini beruvchi maxalliy, milliy iqtisodiyot asosi, aholini ijtimoiy zaif qatlamlari - yoshlar, ayollarni kambag‘allikdan chiqaruvchi asosiy manba sanaladi. BMT Bosh Assambleyasi jahonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish kichik biznes rolini e‘tirof etgan holda 27 iyun- “Kichik biznes kuni” deb e‘lon qildi. Darhaqiqat, 2030-yilga borib 600 mln. ish o‘rinlarini yaratish talab qilinishi sababli kichik biznes dunyo davlatlari hukumatlari uchun ustuvor soha bo‘lib qoladi<sup>1</sup>.

Jahonda UNCTADning 2024-yilgi ma‘ruzasida 2025–2027-yillarda global YaIM o‘sishi 2,7-3,0 foiz atrofida tebranishi prognoz etilayotgan bo‘lsada, 2024-yilda inflyatsiyaning izchil pasayishi, kichik biznesning rivojlanishi evaziga Hindiston, Ruanda, Vetnam, Bangladesh, Indoneziya kabi rivojlanayotgan davlatlarda jadal sur‘atlarda o‘sish kuzatildi. Bu esa sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasilarida turli darajalarda kichik biznes salohiyatidan samarali foydalanish va rivojlantirish zaxiralarini faollashtirishni taqozo qilmoqda<sup>2</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

F.Welter[1] kichik biznes va tadbirkorlikni kontekstual yondashuv orqali tahlil qiladi. U iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional kontekstlarning kichik biznes muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini asoslaydi. Tadqiqotda

1 <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>; <https://www.dk.ru/news/237196774>

2 [https://unctad.org/system/files/official-document/trd2024overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/trd2024overview_ru.pdf)



davlatning infrastrukturaviy qo'llab-quvvatlovi (transport, aloqa, axborot, texnoparklar) kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Sotsiologik nuqtai nazardan, muhit va ijtimoiy tarmoqlarning roli ham chuqur tahlil qilingan.

R.Aidis va hamkasblari[2] tadqiqotida postsovet davlatlarida, jumladan, O'zbekiston sharoitiga yaqin bo'lgan iqtisodiy tizimlarda kichik biznes rivojlanishiga davlat institutlarining ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar sotsiologik yondashuv orqali korxona rahbarlarining davlat infratuzilmasi haqidagi qarashlarini o'rganadi. Ular korruptsiyaning past darajasi, transport-logistika tizimi va raqamlashtirilgan xizmatlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi kalit omillar ekanini ta'kidlaydi.

N.Karimov va B.Shukurov[3] maqolasida Toshkent shahridagi kichik biznes subyektlariga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma unsurlari (elektr energiyasi, transport, axborot texnologiyalari) sotsiologik so'rov natijalari asosida baholangan. Mualliflar respondentlarning muammolarini tahlil qilib, davlat infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Tadqiqotda kichik biznes egalari bilan intervyular asosida real ehtiyojlar aniqlangan va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

D.Storey[4] o'z asarida kichik biznes sektorining rivojlanishini ichki va tashqi omillar kesimida chuqur o'rganadi. Davlatning infratuzilma bilan bog'liq yordami — yo'llar, logistika markazlari, axborot tizimlari va moliyaviy infratuzilma — kichik korxonalarning barqaror faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynashi ko'rsatilgan. Kitobda sotsiologik so'rovlar va tajriba tahlillari asosida kichik biznes ehtiyojlari tavsiflangan va ularga mos yondashuvlar ishlab chiqilgan.

S.Azizov va Z.Otajonova[5] maqolasida O'zbekistonda, xususan, Toshkent shahrida kichik biznesga davlat tomonidan yaratilayotgan infratuzilmaviy shart-sharoitlar statistik va sotsiologik usullar orqali o'rganilgan. Mualliflar kichik biznes vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida davlat xizmatlarining qulayligi, transportga chiqish imkoniyati va raqamli platformalarga integratsiya jarayonini baholaydi. Tadqiqot natijalari asosida siyosiy takliflar ham berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yangilanayotgan O'zbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning lokomotivi sifatida barqaror rivojlanib, 2025—2028-yillarda yangi tartiblardan himoyalangan bo'ldi, ya'ni 2025-yil 1-iyuldan boshlab kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi majburiyatlar yuklashga moratoriy e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda sohada kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish, korxonalarni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko'rsatish sohasida yangi impuls, biznes uchun to'siqlarni yanada qisqartirish kabi 5 ta tashabbuslar e'lon qilindi.

Biz ushbu maqolamizda ham Toshkent shahri misolida o'tkazgan sotsiologik anketa so'rovnoma tadqiqotlarimiz natijalarini qarab chiqamiz.

Sotsiologik anketa so'rovnomalari 2025-yil may-iyul oylarida Toshkent shahrining tuman va shaharlari kesimida kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni boshqarish masalalari bo'yicha 405 nafar respondentlar o'rtasida o'tkazildi.

Sotsiologik anketa-so'rovnomasida qatnashgan respondentlarning jinsi bo'yicha 66,9 foizini erkaklar va 33,1 foizini ayollar, qariyb 16,5 foizini 18-23 yoshdagilar, 31,4 foizini 24-29 yosh oralig'idagilar, 24,9 foizini 30-35 —oralig'idagi respondentlar, 12,3 foizini hamda 36-41 yosh oralig'idagilar va qolganini boshqa yosh oralig'idagilar tashkil qildi. Shuningdek, sotsiologik tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 83 foizini mehnat stajiga ega bo'lganlar, xususan, 46,7 foizini 6-10 yilliklar va 14,1 foizini 11-15 yilliklar, 8,9 foizini 16-20 yilliklar hamda mos ravishda 7,4 hamda 5,9 foizini 21-25 hamda 26-30 yil mehnat stajiga ega bo'lganlar tashkil etdi.


Anketa tarkibiga soha mutaxassislari va amaliyotchi-ekspertlar bilan kelishilgan holda jami 50 ta savollari tuzib kiritildi. Respondentlarning sotsiologik so'rovnomadagi "Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash holatini qanday baholaysiz?" degan savolga 35,8 foizi "Qoniqarli", 39,3 foizi "Yaxshi", 6,9 foizi "Past", 11,1 foizi "Juda past" hamda 6,9 foizi "Juda yaxshi" deb javob berishgan (1-rasm).

Respondentlarning "Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning qanday yo'nalishlarini bilasiz?" degan savolga anketa ishtirokchilarining 146 nafari yoki 36 foizi "moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash", 162 nafari yoki 40 foizi "iqtisodiy va institutsional qo'llab-quvvatlash", 136 nafari yoki 33,6 foizi "huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash"




hamda 70 nafari yoki 17,3 fozi “tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash” kabi vositachi xizmatchilarini bilishlarini ta’kidlashgan.

Respondentlarning “KBXTni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qaysi aniq shakllarini bilasiz?” degan savolga 27,7 foizi “soliq imtiyozlari va chegirmalari berish”, 52,6 foizi “imtiyozli kreditlar berish”, 39,8 foizi “mikromoliyalash xizmatlari taqdim qilish” hamda 13,3 foizi “mikrolizing xzmatlarini taqdim qilish” degan javobni berishgan (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash holatini qanday baholaysiz?<sup>3</sup>

Anketa so‘rovnoma ishtirokchilarining “Kichik biznesning infratuzilmasi rivojlanganligini qanday baholaysiz?” degan savolga 155 nafari “yaxshi”, 170 nafari “qoniqarli”, 26 nafari “past” hamda mos ravishda 27 nafari “juda past” hamda “juda yaxshi” degan javobni berishgan (2-rasm).




2-rasm. Kichik biznesning infratuzilmasi rivojlanganligini qanday baholaysiz?<sup>4</sup>

Ijtimoiy so‘rovnomada ishtirok qilgan 405 nafari ishtirokchilarning 40,7 foizi Toshkent shahrida KBXT infratuzilmasi obyektlari yetarililigini “qoniqarli” darajada baholasa, 37,5 foizi “yaxshi”, 7,7 foizi “juda yaxshi”, 7,4 foizi “juda past” va 6,7 foizi “past” baholashini ma’lum qilgan.

Quyidagi diagrammada “KBXTni infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlashda AKTni qo‘llashning ahvoli qanday?” degan savolning so‘rovnomada qatnashgan respondentlarning javoblari keltirilgan (3- rasm).

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi


<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi



3-rasm. KBXTni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda AKTni qo'llashning ahvoli qanday?<sup>5</sup>


3-rasmga ko'ra, respondentlarning 44,7 foizi hududiy KBXTni infratuzil maviy qo'llab-quvvatlashda AKTni qo'llashning "qoniqarli" ahvolda, 35,3 foizi "yaxshi", 4,9 foizi "past", 8,6 foizi "juda past" hamda 6,4 foizi "juda yaxshi" deb hisobdaydi.

Respondentlarning 84 nafari yoki 20,7 foizi KBXTni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda ishtirokchilarning tashkiliy-huquqiy maqomi ni yakka tartibdagi tadbirkor, 115 nafari yoki 28,4 foizi ma'suliyati cheklangan jamiyat, 68 nafari yoki 16,8 foizi xususiy korxona, 102 nafari yoki 25,2 foizi oilaviy korxona hamda 36 nafari yoki 8,9 foizi AJ deb hisoblashgan (4-rasm).



4-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda ishtirokchilarning tashkiliy-huquqiy maqomi qanday?<sup>6</sup>

"Toshkent shahrida kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda ahloqiy normalariga rioya qilinadimi" degan savolga 55,6 foiz respondentlar "ha" javobini, 13,1 foizi "yo'q" deb hamda qolgan respondentlar esa javob berishga qiynalishini aytgan. Sotsiologik so'rovnoma berilgan "KBXTni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi obyektlarida tadbirkorlik madaniyati qanday?" savoliga respondentlarning 192 nafari "qoniqarli", 138 nafari "yaxshi", 23 nafari "past", 27 nafari "juda past" va 25 nafari "juda yaxshi" deb javob berishgan. "Kichik biznesni infratuzilmaviy tartibga solishda davlatning rolini qanday baholaysiz?" degan savolimizga respondentlar 5-rasmdagi javob berishgan (5-rasm).



5-rasm. Kichik biznesni infratuzilmaviy tartibga solishda davlatning rolini qanday baholaysiz?<sup>7</sup>

5 Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi

7 Muallif ishlanmasi




Bizning “Kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda menejment tamoyillari amal qiladimi?” degan savolimizga respondentlarning 41 foizi “ha”, 11,6 foizi “yo'q” va qolgan qismi javob berishga qiynalishi yoki bilmasligini ma'lum qilgan bo'lishsa, “Kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda xorijiy xalqaro tashkilotlar ham mavjudmi va bo'lsa ular qaysilar?” degan savolga 53,8 foizi “ha, Jahon banki, OTB, ITB, YeTTB”, 5,9 foizi “yo'q”, qolgan qismi javob berishga qiynalishini bildirgan.

Respondentlarning 36 foizi “Kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash subyektlarining hayotiy sikli davomiyligini” “o'rta muddatli”, 14,6 foizi “qisqa muddatli”, 43,2 foizi “uzoq muddatli” hamda 6,2 foizi “cheksiz” deb hisoblashini ma'lum qilgan (6-rasm).


Respondentlarning “Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda ko'p mablag' talab qilinadimi?” degan savolga 26,2 foizi “ha”, 19,3 foizi “yo'q” degan javob berishgan bo'lsa, qolganlar javob berishga qiynalishini yoki bilmasligini ma'lum qilgan.

Sotsiologik so'rovnoma berilgan “Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda qaysi infratuzilma tashkilotining rolini yuqori baholaysiz?” degan savolga berilgan javoblarni quyidagi rasmda ko'rib o'tishimiz mumkin (7-rasm).

Yuqoridagi rasmda ko'ra, so'rovnoma qatnashgan respondentlarning 58,3 foizi “Savdo-sanoat palatasi” kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda qaysi infratuzilma tashkilotining rolini yuqori deb hisoblaydi. So'rovnoma berilgan “Markaziy bank” 21 foiz, “Biznes ombudsman” 8,1 foiz, “Tijorat banklari” 58,3 foiz, “O'zbeklizing” 2,5 foiz, “Xom ashyo birjasi” 1 foiz qatnashuvchilar tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda eng katta ulushga ega ekanligini bildirishgan (6-rasm).



6-rasm. Kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash subyektlarining hayotiy sikli davomiyligi qanday?<sup>8</sup>.




7-rasm. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda qaysi infratuzilma tashkilotining rolini yuqori baholaysiz?<sup>9</sup>.

So'rovnoma ishtirok qilganlardan “Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi kuchli tomonlar qaysilar?” degan savolga ularning 118 nafari yoki 29,1 foizi “istalgan muammoga manzilli yondoshilishi”, 142 nafari yoki 35,1 foizi “muammolar tezkorlik bilan hal qilinishi”, 136 nafari yoki 33,6 foizi “barcha muammolarga kompleks yondoshilishi” yoki 93 nafari yoki 23,0 foizi “davlat doimo tadbirkorlarga yon bosishi” deb javob berishgan (8- rasm).


8 Muallif ishlanmasi

9 Muallif ishlanmasi




8-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi kuchli tomonlar qaysilar<sup>10</sup>.

O'z navbatida, respondentlardan tomonidan "Kichik biznesning davlat tomoni dan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi zaif tomonlari qaysilar?" degan savolga respondentlarning 28,1 foizi "ortiqcha xarajat"larni bo'lish ehtimoli", 36,3 foizi "infratuzilmada ishlovchi xodimlarning zamonaviy bilimlarga ega emasligi", 40,7 foizi "masalani yechish vaqtining cho'zilishi", 17,8 foizi "muayyan to'lovlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar" sabablarini keltirib o'tishgan (9-rasm).



9-rasm. Kichik biznesning davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi zaif tomonlari qaysilar<sup>11</sup>

Shuningdek, respondentlarning 142 nafari yoki 35,1 foizi "yangi xizmat turlarini joriy qilish", 161 nafari yoki 39,8 nafari "infratuzilma subyektlari ishini to'liq raqamlashtirish", 155 nafari yoki 38,3 foizi "xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish", 73 nafari yoki 18 nafari "mijozlar bilan ishlash madaniyatini yanada oshirish"ni kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi kuchli tomonlar imkoniyati deb hisoblashgan (10-rasm).



10-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlar qaysilar<sup>12</sup>.

10 Muallif ishlanmasi


11 Muallif ishlanmasi

12 Muallif ishlanmasi



“Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi tahdidlar qaysilar?” degan savolga sotsiologik so'rovnoma qatnashgan respondentlarning 21,7 foizi “xususiy qo'llab-quvvatlash subyektlarining kuchayishi”, 24 foizi muayan “davlat aralashuvining qisqarib ketishi”, 49,4 foizi “nosog'lom raqobat tufayli biznes subyektlarining kasod bo'lishi” hamda 26,4 foizi “vositachi tashkilotlarning paydo bo'lishi tufayli xarajatlarning oshishi” deb belgilashgan.

Quyidagi 11-rasmda so'rovnoma ishtirok qilganlarning “Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?” degan savolga javoblari keltirilgan. Unga ko'ra, 132 nafar respondentlar “iqtisodiy omillarni”, 51 nafari “ijtimoiy”, 133 nafari “huquqiy”, 35 nafari “tashkiliy”, 12 nafari “siyosiy”, 16 nafari “ekologik”, 5 nafari “madaniy”, 9 nafari “psixologik” hamda 12 nafari “tibbiy omillarni” Kichik biznesga davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga ta'sir qiluvchi omillar deb hisoblashgan.



11-rasm. Kichik biznesga davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?<sup>13</sup>


Sotsiologik so'rovnoma qatnashgan respondentlarning “Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga siyosiy-huquqiy omillar qanday ta'sir etadi?” degan savolga ularning 146 nafari yoki 36 foizi “moliyaviy qiyinchiliklar tufayli qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari pasayadi”, 92 nafari yoki 22,7 foizi “xalqaro tashkilotlarning yordami kamayadi”, 152 nafari yoki 37,5 foizi “turli sanksiyalar vacheqlashlar kiritish salbiy ta'sir qilishi mumkinligi” hamda 99 nafari yoki 24,4 foizi “tovarlarni eksport qiluvchi davlatlarning tovarlar sotilishiga cheklovlar qo'yishi” deb javob berishgan.

“KBXTni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga geografik joylashuvning ta'siri qanday?” degan savolga so'rovnoma ishtirok qilgan respondentlarning 25,2 foizi “yuqori, qishloq joylarida bunday infratuzilma obyektlari kam”, 28,4 foizi “ta'siri yo'q, chunki barcha xizmatlar elektron taqdim qilinadi”, 30,6 foizi “juda yuqori, qishloq va olis joylarda internet aloqasining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi” va 15,8 foizi “geografik joylashuvning qaysi ko'mak olinishiga qarab geogra fiyasini ta'siri bor” deb javob berishgan. O'z o'rnida “Kichik biznes davlat tomoni dan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi logistik xizmatlar rolini qanday baho laysiz?” degan savolga 56 foiz ishtirokchilar “katta” deb javob bergan bo'lsa, 19,5 foizi “past”, 10,9 foizi “juda katta” hamda 13,6 foizi “juda past” deb javob bergan.

Respondentlar tomonidan “Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda kooperatsiya aloqalarining roli qanday?” degan savolga 50,6 foiz ishtirokchilar “katta” deb javob bergan bo'lsa, 23 foizi “past”, 14,8 foizi “juda katta” hamda 11,6 foizi “kooperatsiya aloqalarining roli yo'q” deb javob bergan.

Quyidagi diagrammada “Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda klasterlar roli va raqamlashtirishning ta'siri qanday?” degan savollarga so'rovnoma ishtirok qilgan respondentlar tomonidan berilgan javoblar keltirilgan (12-rasm).

13 Muallif ishlanmasi




12-rasm. Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda klasterlar roli, raqamlashtirish va reklamaning ta'siri qanday?<sup>14</sup>.

12-rasmga ko'ra, respondentlarning 52,1 foizi Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda klasterlarning rolini "katta", 11,6 foizi "juda katta" deb hisoblaydi. Qolganlarining 22,5 foizi "past" va 11,6 foizi "juda past" deb hisoblaydi. Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda raqamlashtirishning ta'sirini respondentlarning 54,6 foizi "katta", 20,2 foizi "juda katta" deb hisoblasa, qolganlarning 14,3 foizi "past" hamda 10,9 foizi "juda past" deb hisoblagan. Shuningdek, "Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda reklamaning ta'siri qanday?" degan savolga 52,1 foiz respondentlar "katta", 23 foizi "juda katta" va qolganlarning 14,8 foizi "past", 10,1 foizi "juda past" degan fikrni bildirgan.

"Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslari talabga javob beradimi?" degan savolga respondentlar ning 38,3 foizi "ha", 12,3 foizi "yo'q", 29,1 foizi "unchalik emas" va 20,2 foizi "takomillashtirish zarur" ligini bildirgan. Ijtimoiy so'rovnoma qatnashgan 405 nafar respondentlarning "Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda qora bozor mavjudmi?" degan savolga 48 nafari "ha, mavjud", 114 nafari "yo'q, mavjud emas", 38 nafari "qisman mavjud" deb javob bergan bo'lsa, qolgan qismi javob berishga qiynalishini bildirgan.

Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning ikkilamchi bozori holati bo'yicha quyidagi rasmdagi diagramma orqali respondentlar tomonidan berilgan javoblarni ko'rib chiqamiz (13-rasm).



13-rasm. "Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning ikkilamchi bozori holati qanday?"<sup>15</sup>

14 Muallif ishlanmasi


15 Muallif ishlanmasi



13-rasmga ko'ra, respondentlarning 105 nafari yoki 25,9 foizi "davlat sektori qilolmagan bo'shliqlarni xususiy sektor to'ldiriyotganini", 73 nafari yoki 18 foizi "ikkilamchi bozor mavjud emasligini", 137 nafari yoki 33,8 foizi "ayrim xizmat turlarida ikkilamchi bozor mavjudligini" hamda 90 nafari yoki 22,2 foizi "davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda ikkilamchi bozorga zarurat yo'qligini" bildirgan.

So'rovnoma qatnashgan respondentlardan "Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda soliq yuqinining o'rnini qanday?" degan savol so'ralganda ularning 57 foizi "katta", 23 foizi "past", 9,1 foizi "juda katta" va 10,9 foizi "juda past" degan javob berishgan. Shuningdek, "Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda nosoliq yuqinining o'rnini qanday?" degan savolga ishtirokchilarning 50,6 foizi "katta", 25,7 foizi "past", 12,8 foizi "juda past" va 10,9 foizi "juda katta" degan fikrni bildirishgan. Respondentlarning 40 foizi Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda davlatning ma'muriy tartibga solish vositalari "yetarli", 14,8 foizi "yetarli emas" deb hisoblasa, qolgan respondentlar javob berishga qiynalishini ma'lum qildi.


So'rovnoma qatnashgan respondentlarning 64,2 foizi kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni istiqbolli deb hisoblasa, ularning 12,1 foizi "juda yuqori", 15,8 foizi "past" hamda 7,9 foizi "juda past" deb hisoblashini ma'lum qilgan (14-rasm).



14-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning istiqbollari qanday?<sup>16</sup>

Respondentlarning "Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda faoliyat yuritish uchun maxsus bilimlar talab qilinadimi?" degan savolga 48,6 foizi "Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda faoliyat yuritish uchun maxsus bilimlar talab qilinadi" deb hisoblasa, 11,1 foizi "talab qilinmaydi", qolgan qismi bilmaydi yoki javob berishga qiynalishini bildirgan. Shuningdek, "Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda mutaxassislik ega bo'lmasdan faoliyat yuritish mumkinmi?" degan savolga 39,3 foizi "ha", 19,5 foizi "yo'q", qolgan qismi bilmaydi yoki javob berishga qiynalishini bildirgan.

Respondentlarning 38,2 foizi Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda g'irrom raqobat "mavjud" deb hisoblasa, ularning 9,2 foizi bu "fikrga qo'shilmagan" hamda qolgan qismi javob berishga qiynalishini bildirgan. So'rovnoma ishtirokchilarining 24,5 foizi kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning chegarasi "cheklanmagan"ni bildirgan bo'lsa, 22,2 foizi "cheklangan", 12,6 foizi faqat "bir qit'a doirasida", 20,7 foizi "tovar va mahsulotlar turlariga bog'liq" deb hisoblaydi (15-rasm).



15-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning chegaralari qanday?<sup>17</sup>

16 Muallif ishlanmasi

17 Muallif ishlanmasi




“Kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash tashkilotlari soni yetarli?” degan savolga respondentlarning 41,2 foizi “yetarli”, 18,3 foizi “yetarli emas” hamda qolganlari bilmasligi yoki javob berishga qiynalishini bildirgan.

Sotsiologik so'rovnoma keltirilgan “Kichik biznesda davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi raqobat qaysi shaklga mos?” degan savolga so'rovnoma ishtirokchilarining 34,1 foizi “monopoliya”, 25,9 foizi “oligapoliya”, 20,5 foizi “monopsoniya” hamda 19,5 foizi “oligopsoniya” deb javob berishgan. Shuningdek, respondentlarning 50,4 foizi Kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi firmalar uchun maxsus yuridik manzil “shart” deb hisoblashgan bo'lsa, 17 foizi “shart emas” deb hisoblaydi.

Respondentlarning 45,7 foizi Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda “Biznesni rivojlantirish banki”ni rolini yuqori deb hisoblasa, ularning 33,6 foizi “Xalq banki”, 13,8 foizi “Agro bank” va 6,9 foizi “Mikrokreditbank”ni rolini baland deb hisoblaydi.

Quyidagi rasmda Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni diversifikatsiyalash bo'yicha respondentlar tomonidan bildirgan fikrlarni ko'rib chiqamiz (16-rasm).



16-rasm. Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?<sup>18</sup>

Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, respondentlarning 196 nafari yoki 48,4 foizi “Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?” degan savolga “infratuzilma xizmatlarida nonlayn va oflayn rejimida foydalanish”ni tushunsa, ularning 78 nafari yoki 19,3 foizi “infratuzilmaning barcha xizmatlaridan aralash holda foydalanish”, 94 nafari yoki 23,2 foizi “turli infratuzilma xizmatlaridan navbat bilan foydalanish” va 100 nafari yoki 24,7 foizi “infratuzilma xizmatlari spektrini kengaytirish”ni tushunishlarini bildirgan.

“Toshkent shahrida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hududlararo o'zaro mutanosibmi yoki farqlanadimi?” degan savolga respondentlarning 40,5 foizi “mutanosib”, 16 foizi “yo'q, mutanosibmas”, 27,7 foizi “hudud siyosatiga bog'liq” hamda 15,8 foizi “biznes muhitiga bog'liq”ligini ma'lum qilgan.

Ijtimoiy so'rovnoma qatnashgan respondentlardan “Toshkent shahrida kichik biznes infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash subyektlarining reputatsiyasining o'zni qanday?” haqida fikri so'ralganda ularning 216 nafari yoki 53,3 foizi “o'rtacha”, 108 nafari yoki 26,7 foizi “yuqori”, 65 nafari yoki 16 foizi “past”, 16 nafari yoki 4 foizi “o'zni yo'qligini” bildirishgan.

Ijtimoiy so'rovnoma qatnashgan respondentlarning 45,9 foizi kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda yangi innovatsion xizmatlar “mavjud” deb hisoblasa, 14,8 foizi “mavjud emas” va qolgan qismi bilmasliklari yoki javob berishga qiynalishlarini bildirishgan.

Respondentlarning 192 nafari yoki 47,4 foizi “Davlat tomonidan kichik biznesni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashdagi vertikal yoki gorizontal integratsiya jarayonlari mavjudmi va bo'lsa qaysilar?” degan savolga “SSP va tijorat banklari, sug'urta va reklama tashkilotlari o'zaro integratsiyasi”ni misol qilishgan bo'lsa, 95 nafari yoki 23,5 foizi “ha, mavjud”, 58 nafari yoki 14,3 foizi “davlat xizmatlari agentligi orqali integratsiyalangan”, 60 nafari yoki 14,8 foizi “yo'q, mavjud emas” deb hisoblaydi.

“Kichik biznes davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga valyuta kursi o'zgarishi qanday ta'sir etadi?” degan savolga respondentlarning 44,7 foizi “yuqori”, 40 foizi “o'rtacha”, 8,4 foizi “juda yuqori” hamda 6,9 foizi “past” deb javob berishgan.

18 Muallif ishlanmasi



“Kichik biznesning davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlar haqida fikringiz?” degan savolga respondentlarning 75 nafari yoki 18,5 foizi “KBXT subyektlarini infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash doirasi kamayib borishini”, 109 nafari yoki 26,9 foizi “KBXT davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash unifikatsiyalashib DXA tizimiga o'tishini”, 82 nafari yoki 20,2 foizi “KBXTni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga talab kamayib oddiy hol bo'lib qolishi” hamda 82 nafari yoki 20,2 foizi “KBXT subyektlarini davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning yangi yo'nalishlari paydo bo'lishi”ni bildirishgan.

Albatta yaqin yillarda ushbu sotsiologik anketa so'rovnomalari natijalaridan kelib chiqqan holda kichik biznesni davlat tomonidan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashni boshqarish mexanizmlarining kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish, imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mavjud zaif jihatlarni va tahdidlarni imkon qadar kamaytirib, oldini olib tegishli yo'l xaritasi ishlab chiqib mavjud muammolarni bartaraf qilish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, Toshkent shahridagi kichik biznes subyektlari uchun davlat tomonidan taqdim etilayotgan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlov muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, transport-kommunikatsiya tarmoqlari, energetika resurslariga qulay kirish, raqamli xizmatlar va texnopark infratuzilmasi kichik biznes faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kichik tadbirkorlarning muammolari ko'pincha amaliy ehtiyojlar bilan uyg'un bo'lmagan umumiy siyosat natijasi sifatida yuzaga keladi. Davlat tomonidan yo'naltirilayotgan yordamning hududiy differentsiatsiyasi va ehtiyojlarga moslashtirilganligi ham sotsiologik so'rov ishtirokchilari tomonidan tanqid qilindi. Shunday qilib, Toshkent shahrida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish uchun infratuzilmaviy yondashuvlarni yanada mahalliyashtirish, muvofiqlashtirish va tahliliy yondashuv asosida shakllantirish zarur. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Hududiy infratuzilma xaritalarini ishlab chiqish va yangilab borish – Kichik biznes zich joylashgan hududlarda transport, aloqa va texnik xizmat tarmoqlarini sotsiologik ehtiyojlar asosida rivojlantirish lozim. Bu orqali infratuzilma resurslari manzilli yo'naltiriladi.

Raqamli infratuzilmani kengaytirish va soddalashtirish – Yagona onlayn platformalar orqali kichik biznes subyektlari davlat xizmatlaridan tez va byurokratik to'siqlarsiz foydalanishini ta'minlash zarur. Bu zamonaviy raqamlashtirish siyosatini amaliyotga tatbiq etadi.

Sotsiologik monitoring tizimini joriy etish – Har yili kichik biznes vakillari o'rtasida infratuzilmaviy ehtiyojlarni aniqlash bo'yicha doimiy sotsiologik so'rovlar o'tkazish va natijalarni davlat dasturlariga integratsiya qilish taklif etiladi. Bu yordam strategiyalarini real talab asosida moslashtirish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Welter, F. (2011). “Contextualizing Entrepreneurship—Conceptual Challenges and Ways Forward.” *Entrepreneurship Theory and Practice*, 35(1), 165–184.
2. Aidis, R., Estrin, S., & Mickiewicz, T. (2008). “Institutions and entrepreneurship development in Russia: A comparative perspective.” *Journal of Business Venturing*, 23(6), 656–672.
3. Karimov, N., & Shukurov, B. (2022). “Kichik biznesni rivojlantirishda infratuzilmaning roli: Toshkent shahar misolida.” *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2(5), 45–53.
4. Storey, D. J. (1994). *Understanding the Small Business Sector*. London: Routledge.
5. Azizov, S., & Otajonova, Z. (2021). “O'zbekiston sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi.” *Ijtimoiy fanlar va tadqiqotlar*, 1(4), 88–96.
6. Ganiyev Sh.V., Mamatov B.S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlan tirishda infratuzilmaning ahamiyati // *Oriental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciencyes* // [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz), August, 2023.
7. Maxmudova D.R. Kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirish asosida biznes muhitini va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish // *SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337* <https://doi.org/10.5281/zenodo.7375852>;
8. Образцова, Н.А. Методика оценки эффективности развития инновационной инфраструктуры региона (оценка потенциала инновационной деятельности субъектов малого и среднего предпринимательства) /Н.А.Образцова // *Вестник ЛГУ им. А.С.Пушкина*. -2012. -Но 3. - С.100-106.
9. Плотникова, Т.А. Инфраструктура поддержки малого бизнеса в России / Т.А.Плотникова // *Бизнес в законе*. -2011. - Но 4. -С.249.
10. Сибирская, Е.В. Разработки инфраструктуры для поддержки пред приятий малого бизнеса/Е.В.Сибирская, О.А.Строева, Е.В.Петрухина // *Ученые записки Орловского государственного университета Научный журнал*. -2012. -Но 4. -С.38-46
11. Хоменко, Е.Б. Управление развитием инфраструктуры предпринимательства в условиях перехода к информационной экономике : дис. ... док. экон. наук : 08.00.05 / Хоменко Екатерина Борисовна. -СПб.: 2014. -421 с.



12. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Иқт. фан. докт. илмий дараж. дисс. Тошкент, ТДИУ, 2008.
13. Ғофуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Иқт.фан.докт.илмий дараж. дисс. Тошкент, ТДИУ, 2017.
14. Эрматов А.А., Косимов С.Д.. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишидаги асосий инфратузилмаси бўлган банк тизимларининг роли (Андижон вилояти мисолида) // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022, B.225-232.
15. <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>;
16. <https://www.dk.ru/news/237196774>
17. [https://unctad.org/system/files/official-document/tdr2024overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/tdr2024overview_ru.pdf)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---